

O'QUV DASTUR PASPORTI

*O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lif muvofiqlashtiruvchi kengashning
2025 yil 29 yanvardagi № MMO-45-2025 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.*

Amal qilish muddati 2027 yil gacha

Ta'lif muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/bo'lim	Oilaviy tibbiyot kasb kasallikkleri kursi bilan
O'quv dastur nomi	"Uyda reabilitatsiya qilish"
O'qish turi	Mavzuviy malaka oshirish sikli. Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 10 yanvardagi 7-sonli buyrugiga asosan ishlab chiqilgan.
O'quv dastur muallifi/mualliflari	Dasturni bo'yicha ishchi gurux a'zolari: t.f.d.Madjidova Yo.N., t.f.d.Usmanxodjaeva A.A., t.f.d.Mavlyanova Z.F., t.f.d.Ergasheva N.N., t.f.d.Musajanova L.X., t.f.n.Salixodjaeva R.K., t.f.d.Xalimbetov F.C., t.f.n.Taxirova F.A., Tojiboeva G.Sh., Muxsimova M U., Ganieva N.S.
Siklning umumiy soati	144 kredit

Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar



DSc., dotsent,
G.S. Xalimbetov



t.f.n., dotsent
R.A. Nurmuxamedova



PhD, dotsent
M.S.Masharipova



Assistent
F.R. Kdirbayeva

Maqsad	Uy sharoitida reabilitatsiya o'tkazish uchun maxsus tayyorlangan xamshira va shifokorlar jamoasini shakllantirish. Bemorlar va nogironligi bo'lgan shaxslar hamda ularning oila a'zolariga uy sharoitida samarali tibbiy va psixologik yordamni amalga oshirish, ularning hayot sifatini yaxshilash va tiklanish jarayonini rag'batlantirish uchun nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va professional munosabatga ega bo'lishga qaratilgan. Oilaviy shifokor va patronaj hamshiralariiga insult tufayli qo'l oyoq harakati buzilgan - falajlik, nutq, sezgi, kognitiv funksiyasi buzilgan bemorlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni uy sharoitida reabilitatsiya qilish, ularga ijtimoiy va psixologik readaptatsiya qilib, qayta insultni oldini olish bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarni Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti va halqaro yetakchi ilmiy tashkilotlarining yangi va zamonaviy tavsiyalariga mos ravishda targ'ib qilib, malaka va kasbiy salohiyatini oshirishdan iborat. O'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lib qolgan keksalar, bemorlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni uy sharoitida sog'lom ovqatlanishini tashkil qilish sohasida oilaviy shifokorlar va patronaj hamshiralarning nazariy va amaliy ko'nikmalarini hamda malakasini oshirish, shuningdek Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti va halqaro yetakchi ilmiy tashkilotlarining yangi va zamonaviy tavsiyalariga mos ravishda targ'ib qilib, malaka va kasbiy salohiyatini oshirishdan iborat.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari oilaviy shifokorlari va patronaj xamshiralari uchun mo'ljallangan.
Sikl vazifalari	<ul style="list-style-type: none">Hamshiralarga reabilitatsiyaning nazariy asoslari, jarayonning ahamiyati va reabilitatsiyaning inson fiziologiyasiga ta'siri, bemorlarning individual holatlariga mos reabilitatsiya tamoyillarini tanlash ko'nikmasini rivojlantirish.Uy sharoitida reabilitatsiya jarayonini tashkil etishda xalqaro standartlar va tajribalarni qo'llashni o'rgatish.

	<ul style="list-style-type: none"> • Oila a'zolari bilan samarali muloqot qilish, ularga reabilitatsiyaning ahamiyatini tushuntirish, ko'nikmasini shakllantirish. • Oila a'zolarining reabilitatsiya jarayonidagi rolini mustahkamlash uchun maslahatlar va yordamni tashkil qilish. • Turli darajadagi muloqot to'siqlarini bartaraf etish uchun empatiya va aktiv tinglash usullarini o'rgatish. • Yakka yolg'iz bemorlarning kundalik ehtiyojlarini aniqlash va ularga ko'maklashish usullarini o'rgatish. • Uyda bemorning xavfsizligini ta'minlash uchun profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish. • Bemorning uy sharoitidagi xavflarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish. • Reabilitatsiya jarayonida ko'makchi uskunalarni to'g'ri tanlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish. • Uydagi muhitni bemor uchun qulay va xavfsiz qilish bo'yicha amaliy maslahatlar berish. • Insult erta tiklanish davri asoratlari (falajlar, kontrakturalar, nutq buzilishlari – afaziyalar, sezgi buzilishlari, bemor yiqilishlari oldini olish)ni yoritish va profilaktika choralarini o'rgatish. • Xamshiralarni turli kasalliklar uchun reabilitatsiya metodikasi va yondashuvlari bilan tanishtirish. • Kasallik turiga qarab reabilitatsiya chora-tadbirlarini tanlash: insultdan keyingi reabilitatsiya, yurak-qon tomir kasalliklari uchun reabilitatsiya, muskul-skelet tizimi kasalliklarida rebilitatsiyani amalga oshirish. • Neyrodegenerativ va surunkali kasalliklarda reabilitatsiya chora tadbirlarini o'rgatish. • Insult o'tkir davri asoratlari (yotoq pnevmoniyasi, yotoq yaralar, o'pka arteriyasi tromboemboliyasi (TELA), flebotromboz, urologik infeksiyalar)ni yoritish va profilaktika choralarini o'rgatish. • Insult kech tiklanish davri asoratlari (falajlar, kontrakturalar, nutq buzilishlari – afaziyalar, kognitiv va psixologik buzilishlar)ni yoritish va profilaktika choralarini o'rgatish. • Insult tufayli yutish buzilgan – disfagiyalı bemorlar ovqatlanishini o'rgatish. • Bemorning holatini tizimli monitoring qilish usullarini o'rgatish. Tiklanish jarayonidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun klinik baholash ko'nikmalarini shakllantirish. • Reabilitatsiya jarayonining natijalarini tahlil qilish va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar berish; Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga ko'ra sog'lom ovqatlanishni tashkil qilishni o'rgatis. • Iste'molini cheklash va oshirish kerak bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxatini nogironlarni parvarish qiluvchilarga keng targ'ib qilishni o'rgatish.
--	---

	<ul style="list-style-type: none"> Surunkali yuqumli bo‘lмаган касалликлар сабабли ногиронланышда sog‘лом овқатланышни ташкіл қилишни о‘ргатиш. Nogironligi bo‘lgan bolalarning sog‘лом овқатланышини ташкіл қилишни о‘ргатиш.
Sikl tarkibi	<p>1 modul. Reabilitatsiyaning asosiy tamoyillari.</p> <p>2 modul. Muloqot va psixologik yondashuvlar.</p> <p>3 modul. Yolg‘iz yashovchi bemor va nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan bevosita ishslashni tashkil etish.</p> <p>4 modul. O‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lib qolgan keksalar, bemorlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni uy sharoitida parvarishlash asoslari.</p> <p>5 modul. O‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lib qolgan keksalar, bemorlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni uy sharoitida reabilitasiya qilish asoslari.</p> <p>6 modul. Nogironligi bo‘lgan bolalarni uy sharoitida reabilitasiya qilish asoslari.</p> <p>7 modul. O‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lib qolgan keksalar, bemorlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni uy sharoitida sog‘лом овқатланышини ташкіл қилиш asoslari.</p> <p>8 modul. Uy muhitini reabilitasiya uchun moslashtirish.</p> <p>9 modul. Oilaviy shifokorlar tomonidan bemorlar holatini baholash.</p>
O‘qish bazalari	Sikllarda belgilangan o‘qiv bazalar: Shaxrisabz shahar MKTP, Xamshiralalar malakasini oshirish markazi Qarshi filiali, Koson TTB, Yakkabog TTB ba Kitob TTB majlislar zali.
Koson tumani	
Yakkabog tumani	
Sharisabz tumani	
Qarshi shahar	

Kitob tumani

